

KUCHLI RUHIY HAYAJONLANISH HOLATIDA QASDDAN BADANGA OG'IR YOKI O'RTACHA OG'IR SHIKAST YETKAZISH

Dauletbaeva Aynur Baxramovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi

E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish haqida keltirib o'tilgan. Kuchli ruhiy hayajonlanish holati, og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish tushunchalariga alohida ta'rif berilgan. Shuningdek, maqolada Germaniya tajribasi o'rganilgan va ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kuchli ruhiy hayajonlanish, og'ir tan jarohati, o'rtacha og'ir tan jarohati, qonunchilik, Jinoyat Kodeksi.

УМЫШЛЕННОЕ ПРИЧИНЕНИЕ ТЯЖЕЛОГО ИЛИ СРЕДНЕГО ТЯЖЕСТВА ТЕЛА В СОСТОЯНИИ СИЛЬНОГО ПСИХИЧЕСКОГО ВОЛНЕНИЯ

Даулетбаева Айнур Бахрамовна

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

студент 2-го курса юридического факультета

Аннотация: В данной статье описывается умышленное причинение тяжкого или средней тяжести телесного повреждения в состоянии сильного душевного волнения. Особое определение дано понятиям состояния сильного душевного волнения, причинения тяжкого или средней тяжести телесного повреждения. Также в статье изучен опыт Германии и приведены данные.

Ключевые слова: сильное душевное волнение, тяжкое телесное повреждение, средней тяжести телесное повреждение, законодательство, Уголовный кодекс.

INTENTIONAL SEVERE OR MEDIUM SEVERE INJURY IN A STATE OF STRONG MENTAL EXCITEMENT

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna

2nd year student of the Faculty of Law of

Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract: This article describes intentional infliction of grievous or moderate bodily harm in a state of intense emotional distress. A separate definition is given to

the concepts of a state of severe emotional agitation, causing serious or moderate bodily harm. The article also examines the experience of Germany and provides data.

Keywords: severe emotional distress, grievous bodily harm, moderate bodily harm, legislation, Criminal Code.

Jinoyat huquqida jinoyatlar har xil usullarda yoxud ko‘rinishlarda sodir etilishi mumkin. Masalan: jinoyat qasddan, ehtiyotsizlik orqasida, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida, zaruriy mudofaa chegarasida, oxirgi zarurat singari va boshqa usullarda sodir etilishi mumkin. Shuni ta‘kidlab o‘tishimiz lozim, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida, zaruriy mudofaa chegarasida, oxirgi zaruratta sodir etilgan qilmishlar qilmishning jinoiyligini istisno qilish xususiyatiga ega. Agar mazkur yo‘llar orqali sodir etilgan qilmishlar aniqlansa va ularning tarkibida jinoyat tarkibi bo‘lmasa, bunday qilmishlar jinoyat hisoblanmaydi.

Yuqorida aytib o‘tkanimizday jinoyat bir qancha usullarda sodir etilishi mumkin. Sanab o‘tilgan usullardan esa kuchli ruhiy hayajonlanish orqali sodir etiladigan jinoiy qilmish haqida kengroq to‘xtalib o‘tamiz.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining "Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar" bobida, 106-moddasida "Jabrlanuvchi tomonidan qilingan g‘ayriqonuniy zo‘rluk yoki og‘ir haqorat, shuningdek aybdorning yoki uning yaqin kishisining o‘limiga yoki sog‘lig‘iga ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lgan yoxud sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar tufayli to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [1]."-deb, ko‘rsatib o‘tilgan. Kuchli ruhiy hayajonlanish-fiziologik affekt holatida bo‘lishdir. Fiziologik affekt-qisqa muddatli, lekin tezlik bilan kechadigan emotsional reaksiya, g‘azabga aylanadigan qahr, shiddatli kechinma, daxshatga aylanadigan qo‘rquv, shuningdek shaxsning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatining bir qancha muddatga yo‘qolishi. Shaxs fiziologik affekt jarayonida o‘zining harakatlari uchun javob bera oladi, nima qilayotganligini tushunadi, biroz o‘z harakatlarini boshqara oladi va bu shaxsni aqli noraso deb topish uchun asos bo‘lmaydi. Shaxs bu qobiliyatini butunlay yo‘qotsa, u patalogik affekt holatida bo‘ladiki, bu shaxsni aqli noraso, deb topish uchun dastlabki shart-sharoitni yaratadi [2; 40]. O‘g‘ir shikast yetkazish-bu shaxsga qilingan noqonuniy harakatlar tufayli ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoki tananing biror a‘zosining ishdan chiqishi yoxud uning faoliyati tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha

tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismining doimiy yo'qolishiga homilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi hisoblanadi. Ko'rish qobiliyatini yo'qotish deganda-shaxsning ikki metr va undan kam masofadagi oraliqlarni ko'rishini pasayishi tushuniladi. So'zlash qobiliyatidan mahrum bo'lish-bu shaxsning o'z fikrlarini tovushlar yordamida tushuntirish imkoniyatidan ayrilish. Eshitish qobiliyatini yo'qotish deganda shaxsning 3-5-santimetr masofadagi ovozlarni eshita olmasligi.

O'rtacha og'ir shikast yetkazish-sog'liqning uzoq vaqt, kamida 21 kun, lekin 4 oydan ko'p bo'lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qolishidir [3].

Mazkur jinoyatning zaruriy belgisi sababiy bog'lanishdir. Kuchli ruhiy hayajonlanish holati jabrlanuvchining harakatlari tomonidan, ya'ni og'ir haqorat qilishi, jinoyat sodir qilishda aybdor shaxsning o'limiga yoki sog'lig'iga qandaydir zarar yetkazilishiga yoxud jabrlanuvchining boshqa har xil noqonuniy harakatlari oqibatida yuzaga kelishi kerak. Shuning uchun ham ushbu jinoiy qilmishda sababiy bog'lanish zaruriy belgi hisoblanadi. Yana bir zaruriy belgisi bu qilmishning subyektiv tomoni, ya'ni uning qasddan sodir etilishi hisoblanadi. Qasd-bu shaxs o'zi nima qilayotganligini anglaydi, uning oqibatlariga ko'zi yetadi va uning yuz berishini xohlaydi yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yib beradi. Qasdning to'g'ri va egri qasd kabi turlari mavjud [4].

Yuqorida keltirib o'tilgan harakatlar nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy davlatlarda ham jinoyat hisoblanadi. Mazkur jinoyatni Germaniya jinoyat qonunchiligi bilan ko'rib chiqamiz. Germaniya Jinoyat Kodeksi (Strafgesetzbuch) 223-224-moddalari "Tan jarohat yetkazish" deb nomlanadi [5]. Lekin, ushbu qilmish kuchli ruhiy hayajon holatida sodir etilgan bo'lsa, jinoiy harakat huquqiy jihatdan o'ziga xos tarzda baholanadi. Germaniya jinoyat huquqida kuchli ruhiy hayajonlanish holati (nemischa "heftige Gemütsbewegung") jinoyatchini oqlovchi omil sifatida emas, balki aybdorning javobgarligini yengillashtiruvchi omil sifatida ko'rilishi diqqatga sazovor. Ya'ni jinoyat sodir etilgan vaziyat, hissiy portlash yoki birdaniga yuz bergan ruhiy holat, shaxsning ichki holatini yengillashtiruvchi holat hisoblanadi, lekin jinoyatning tarkibini yo'qqa chiqarmaydi. Bunday vaziyatda jinoyatni baholashda sud aqliy yoki emotsional bosimni inobatga olgan holda jazo choralarini yumshatishi mumkin. Germaniya Jinoyat kodeksining 21-moddasida ta'kidlanishicha, agar jinoyat sodir etilgan vaqtda shaxs og'ir ruhiy hayajonlanish holati natijasida o'z harakatining mohiyatini anglab yetishga yoki uni boshqarishga layoqatsiz bo'lsa, u holda uning ayblilik darajasi pasaygan deb baholanishi mumkin. Bu esa sud tomonidan jazoni belgilashda muhim rol o'ynaydi va ko'p hollarda shartli hukm chiqarilishiga yoki jazoning eng kam muddatidan foydalanishga olib keladi. Shu bilan birga, tan jarohatining og'irligi, jinoyatning qanday vosita bilan sodir etilgani, jabrlanuvchining

holati va jinoyat sabablariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Jinoyat sodir etgan shaxsning hissiy holati, uning voqea oldidan va keyin tutgan o'zini, sodir etilgan harakatning kontekstda qanday baholanishi – bularning barchasi sud qarorida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda, kuchli hayajonlanish holati ostida sodir etilgan harakatlar jazoni to'liq bekor qilmasa-da, sud tomonidan jinoyatning subyektiv tomonini yengil deb baholash imkonini beradi.

Germaniya qonunchiligi va milliy qonunchligimiz o'rtasida bir qancha o'xshashliklar va farqlar mavjud. Eng asosiysi, Germaniyada kuchli ruhiy hayajonlanish qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida emas, balki uni subyektiv tomondan yengillashtirish vazifasini bajaradi. O'zbekistonda esa bu holat nafaqat yengillashtiruvchi, balki qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi usullardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, inson hayoti va sog'lig'i bu qadrli nematdir, lekin unga har xil usullarda zarar yetkazish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Agarda shaxs jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo'lsa va aybdor qasddan jabrlanuvchiga og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazsa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 106-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 106-modda. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>.
2. M.H.Rustambayev. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar". Maxsus qism. T. "Adolat". 2016. B-40.
3. M.X. Рустамбаев. Жынаят хуқықы. Арнаўлы бөлим: Жоқары оқыў орынлары ушыын сабақлық. – Нөкис, "Билим". 2005-жыл.
4. S.SH.Utemuratova. Jinayat huquqi. Ulwma bólim. T. Metodist nashriyoti.2023.
5. Germaniya Jinoyat Kodeksi. 223-224-moddalar. <https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/BJNR001270871.html>.